

UO'K 657:006.013:658.8

**RESPUBLIKAMIZ IQTISODIYOTIDA SAVDO KORXONALARINING TUTGAN
O'RNI VA AHAMIAYI, HAMDA ULARDA HISOB YURITISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Uzakov Utkir Abdusattarovich

Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruvi va Texnologiyalar Universiteti "Iqtisodiyot va boshqaruvi" kafedrasiga katta o'qituvchisi e-mail:utkir.uzoqov@gmail.com; Tel.: +99893 0091466

Annotatsiya: *Ushbu maqolada savdo faoliyatining tarixi, Respublikamiz iqtisodiyotida savdo korxonalarining tutgan o'rni va ahamiayi, hamda ularda hisob yuritishning o'ziga hos xususiyatlari, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida savdo-tijorat korxonalarining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi kabi masalalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: Savdo korxonalari, buxgalteriya hisobi, ichki savdo, tashqi savdo, chakana savdo, ulgurji savdo, tovarlar, pul mablag'lari.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratlar rivojlangan davlatlarda savdo korxonalarining o'rni alohida ahmiyat kasb etadi. Shu o'rinda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida savdo-tijorat korxonalarining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi ancha yuqori. Shu sababli, Respublikamizda savdo-tijorat korxonalari faoliyatini tashkil qilish va jahon tajribasi asosida takomillashtirish dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Tarixdan ma'lumki, O'zbekiston hududida savdo hamisha iqtisodiy hayotning eng muhim omillaridan biri bo'lib kelgan. Qadimgi savdo yo'li - Buyuk Ipak yo'lida joylashgan Turkiston xalqaro savdoda muhim o'rinni egallagan. Bu yo'l orqali Xitoy va Mug'ulistonidan Hindiston, Eron, G'arbiy Osiyo, Kavkaz hamda sharqiy Yevropaga asosan ipak, teri, shuningdek ziravorlar, oltin va qimmatbaho toshlar, zargarlik buyumlari olib o'tilgan. Yirik shaharlar Buxoro, Samarqand, Urganch, Toshkent, Qarshi, Qo'qon va boshqalarda ko'plab karvonsaroylar bo'lgan. Karvonsaroylar va bozorlarda narx-navo, savdo haqida so'nggi ma'lumotlar eshittirilgan. Keyinchalik karvon savdo aloqalari boshqa shaharlari bilan ham o'rnatilgan. Qadimdan savdo aloqalari qaysi davlatlarda rivojlangan bo'lsa, o'sha davlatlarning iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Savdo yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlikning bir turi hisoblanadi. U ishlab chiqarish sohasini iste'mol sohasi bilan bog'lovchi bo'g'indir. Savdosiz yaratilgan mahsulotlar o'z iste'molchilariga yetib

bormaydi. Demak, savdo makon va zamonda takror ishlab chiqarishni amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Savdo tovar-pul munosabatlarning majmuasidir. Ushbu munosabatlarda bir tomonidan sotuvchi, ikkinchi tomonidan esa sotib oluvchi ishtirok etadi. Tovar-pul munosabatlari majmuasi savdoni iqtisodiyotining maxsus tarmog'i darajasida harakat qilishiga olib keladi.

Savdo faoliyatini turli belgilari bo'yicha guruhlash mumkin.

Amal qilish hududiga ko'ra savdo faoliyati ichki va tashqi savdoga bo'linadi.

Ichki savdo –bu bir mamlakat hududi chegarasida amalga oshiriladigan savdo faoliyati.

Tashqi savdo – bu mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahalliy tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish faoliyati. Tashqi savdo faoliyati, boshqachasiga, eksport deb ham ataladi.

Tovarlarni savdo-sotig'ini amalga oshirish va unda qo'llaniladigan hisob-kitoblarning shakliga ko'ra savdo ulgurji, mayda ulgurji va chakana savdo turlariga bo'linadi.

Ulgurji savdo – bu savdo sohasida tovarlarning yirik turkumlarini o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz shakli bo'yicha, uni tijorat tadbirdorlik faoliyati maqsadida yoki o'z ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanishni mo'ljallayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Ulgurji savdo ham ichki, ham tashqi savdo faoliyati bo'lishligi mumkin.

Mayda ulgurji savdo – savdo sohasida tovarlarni kichik turkumlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz va naqd pul shakllari bo'yicha sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Mayda ulgurji savdo faqat ichki savdo faoliyati hisoblanadi. Ushbu savdo faoliyati chakana savdo korxonalari, ulgurji savdo korxonalari va yuridik shaxs bo'lmannan yakka tartibdagi tadbirdorlar tomonidan turg'un savdo shahobchalari hamda iste'mol buyum bozorlarida ajratilgan joylar orqali amalga oshiriladi.

Chakana savdo — savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmannan miqdorlarda (sonda) naqd pulga yoki bank plastik kartalari (korporativ bank kartasi bundan mustasno) yoxud kontaktsiz onlayn to'lov tizimlari orqali sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish [1.1]. Ushbu savdo faqat ichki savdo faoliyati hisoblanadi.

Tovarlarning guruhlariga ko'ra savdo oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari savdosiga, guruhlar ichida esa alohida quyi guruh tovarlari savdosiga, masalan, non va non mahsulotlari savdosi, qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi, alkogol va alkogolsiz ichimliklar savdosi, xo'jalik mollari savdosi, qurilish materiallari savdosi, avtomobillar savdosi, avtomobillar yoqilg'isi savdosi, aralash mollar savdosi, dori-darmonlar savdosi, tibbiy texnika va optika tovarlari savdosi, tillo buyumlar savdosi va shu kabi boshqa turlarga bo'linadi.

Xodimlarining soniga ko'ra savdo korxonalarini yirik korxonalar, kichik korxonalar va mikrofirmalarga ajratish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30 avgustdagи Farmoniga [2.1] muvofiq savdo va umumiy ovqatlanishda:

•mikrofirmalar - bu band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 5 kishigacha bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

•kichik korxonalar - bu band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 6 kishidan 25 kishigacha bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 09 fevraldagi qarorida [3.1] belgilanganidek, savdo faoliyatini yurituvchi subyektlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ularning mulkiy va tashkiliy shakliga bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunga kelib yurtimizda savdo faoliyatini amalga oshirayotgan korxonalar soni ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agengligining ma'lumotlariga ko'ra 2024-yil 1-may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 91 286 tani tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 352 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 90 934 tani tashkil etadi [4.1].

Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish sharoitida tovar ayirboshlash, tovarlar ishlab chiqarish korxonalaridan iste'molchilarga ya'ni xaridorlarga yetkazib berish savdo korxonalari orqali amalga oshiriladi. Bunda sovdo korxonalarida tovarlar hisobini to'g'ri tashkil etish, sotish xarajatlarini o'z vaqtida hisobga olishda buxgalteriya hisobining o'rni katta ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobini hisob ta'moyillari asosida yuritish uchun buxgalteriya hisobi oldiga quyida keltirilgan vazifalarni yuklaydi:

◆ tovar aylanmasining miqdorini hujjatlasi asosga ega bo'lishligini ta'minlash, uni hisob registrlari va hisobotlarda to'g'ri aks ettirish;

◆ tovar -pul munosabatlari orqali pul mablag'larini toplash, savdo korxonalarida yuz beradigan tovar-pul operatsiyalarini o'z vaqtida, to'g'ri hujjatlashtirish, guruhlash va jamlanishini ta'minlash;

◆ tovar-moddiy boyliklar bo'yicha baho siyosatini to'g'ri shakllantirish va ushbu siyosatni to'g'ri amalga oshirilishi ustidan doimiy nazoratni olib borish va boshqalar.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish, eng avvalo tovar aylanmasi rejasiga hamda xo'jalik-moliya faoliyatlarini baholashning asosiy me'zoni sifatida, bajarilishini nazorat qilish uchun zarur axborot bilan ta'minlanishi kerak. Xo'jalik muomalalarini buxgalteriyada hisobga olish o'z vaqtida aks ettirilishi ularni qayd etishning o'zi bilan cheklanmaydi, hisob ma'lumotlaridan ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalarda tovarlarni o'z vaqtida nazorat qilish, ularni turib qolmasligi uchun o'z vaqtida tasir ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Savdoda uzluksizlikni ta'minlash maqsadlarida buxgalteriyada hisobga olish tovar zahirasining holati, ularning o'z vaqtida to'ldirib borilishi, tovar aylanmasining

jadallashishi ustidan muntazam nazoratni amalga oshiradi. Savdo korxonasi mulkini saqlanishi ustidan nazorat qilish ham buxgalteriyada hisobga olishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Buxgalteriyada hisobga olishning muhim vazifasi-xo‘jalik hisobini xar tomonlama mustahkamlash, faqat korxonalarini emas, moddiy boyliklar va pul mablag‘lari sarfi ustidan muntazam nazoratni amalga oshiradilar.

Buxgalteriyada hisobga olish ma’lumotlari xo‘jasizlik va isrofgarchilik holatlarini aniqlash, jonli va moddiylashtirilgan mehnatni tejashning qo‘sishimcha manbalarini aniqlash, rentabellikni oshirishning manbalarini topish imkonini beradi. Xo‘jalik hisobi korxona faoliyati pirovard natijasining eng yaxshi nazoratchisi bo‘lib, zararsiz ishslash ma’suliyatining oshirilishini talab qiladi.

Tovarlarni ishlab chiqarishdan iste’molchilarga yetkazishda moddiy va pul xarajatlarini kamaytiradi, savdo korxonalarini rentabelligini oshiradi.

Bundan tashqari buxgalteriyada hisobga olish, uni oqilona tashkil etishning umumiyl vazifalarini hisobga olishni savdoni alohida bo‘g‘inlarida ularning xususiyatlarini e’tiborga olib, muvaffaqiyatli yuritilishini ta’minlashi zarur. Shunga ko‘ra tovarlarni tuzilgan shartnomalarga muvofiq tarzda yetkazib berilishini to‘g‘ri hisobga olib borilishi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday buxgalteriya hisobini tashkil etish uchun, eng avvalo, hisobning pastki qismida hisob-kitoblarni to‘g‘ri tashkil qilishdan iboratdir. Buning uchun buxgalterlar, iqtisodchilar buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun va yo‘riqnomalarni juda yaxshi bilishi zarur.

Savdo korxonalarini bir birlaridan tovar operatsiyalarini tegishli xujjatlar bilan rasmiylashtirish bo‘yicha ham farq qiladi. Jumladan, ulgurji savdo korxonalaridagi tovar operatsiyalarining xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, bironqa tovar-moddiy boylikning kirim va chiqimi bu yerda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirmasdan turib amalga oshirilmaydi. Chakana savdo korxonalarida aksincha, har bir tovar operatsiyasini hujjatlashtirib bo‘lmaydi. Ulgurji savdoda omborlardan tovarlar faqat naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida sotiladi, chakana savdo esa tovarlar asosan naqd pulga, ayrim hollarda kichik ulgurji shaklda naqdsiz sotilishi mumkin.

Savdo korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarini 4-son BHMSga asosan yuritadi [5.1].

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri bo‘lib tovar-moddiy boyliklarning holati va harakati bo‘yicha sintetik va analitik hisobni yuritish hisoblanadi. 21-son BHMS “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlari rejasi va uni qo’llash bo‘yicha Yo‘riqnomasi” [6.1]ga muvofiq tovarlarning sintetik hisobini buxgalteriya hisobi schotlarida olib borish nazarda tutilgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, savdo korxonalar elektron ko‘rinishga o‘tib ya’ni elektron-savdo yoki elektron tijorat ko‘rinishiga kelib anchagina rivojlanib, hamda sotuvchi va xaridorlar uchun ko‘plab qulayliklar keltirmaqda. Qolaversa, ularning

daromadi ham bir necha martaga oshib bormoqda. Bularga misol qilib amazon.com, alibaba.com, coupang.com, gmarket.co.kr, uzum.uz va boshqalarni keltirish mumkin.

Savdo korxonalarining soni ko‘payishi davlatga ham bir qancha foydalar keltiradi. Savdo biznesi ko‘plab ish o‘rinlarini yaratadi. Fransiyada savdo sohasida 3 milliondan ortiq kishi yoki iqtisodiyotda band jami aholining 11 foizi faoliyat yuritadi. O‘zbekistonda ham bu sohada band bo‘lganlar salmog‘i iqtisodiy faol aholining qariyb 10 foizini tashkil etadi [7.1]. Shunday ekan, chet el savdo korxonalari tajribasini keng o‘rganish va yurtimizda ushbu amaliyotlarni keng qo‘llash maqsadga muvofiq deb o‘layman.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 13-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida umumiyligi ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 75-sodnidan Qarori, <https://lex.uz/docs/-243235>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30-avgustdagagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-1987-sodnidan farmoniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi PF-3305-sodnidan Farmoni, <https://lex.uz/docs/-173072>

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 09-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2016-yil 28-oktabrdagi PQ-2646-sodnidan qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 66-sodnidan Qarori, <https://lex.uz/docs/-3111347>

4. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/53856-chakana-savdo-sohasida-faoliyat-ko-rsatayotgan-tijorat-korxonalari-soni>

5. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2020-yil 28-maydagagi “O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) “Tovar-moddiy zaxiralar”ni tasdiqlash haqida”gi 24-sodnidan buyrug‘i, <https://lex.uz/docs/-4890446>

6. <https://lex.uz/acts/417624>

7. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/09/real-estate/>